

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**SCIENCE –TABIIY FAN DARSALARIDA O'QUVCHILARNING HAYOTIY  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.**

**Sharopova Yulduz Abdusattorovna**

*Buxoro viloyati Xalq ta'lifi boshqarmasi*

*G'ijduwon tumani XTB tasarrufidagi*

*10- umumta'lif maktabi Kimyo fani o'qituvchisi*

**Ulug'ova Gulhayo Qahramon qizi**

*Biologiya fani o'qituvchisi*

**Anatatsiya:** *Tabiatda inson omilini tushuntirish tabiat hodisalarini anglashda o'quvchilarga xalqimizning ko'p ming yillik boy tajribalaridan foydalanish.*

**Kalit so'zlar:** *Tabiat,inson yil fasllari,atrofimizdagi olam ,iqlimning o'zgarishi.*

*"Tabiat hamma narsaga g'amxo'rlik qiladiki ,hamma joyda siz undan nimadir o'rganasiz".*

**Leonardo da Vinci**

Tabiat eng a'lo murabbiydir unga bir narsa bersang ming qilib qaytaradi,agarda oqilona munosabatda bo'lmasak u tajovuzkor va qasoskorga aylanadi.Tabiatni kuchi va qudrati buyuk bu buyuklikni hali inson to'liq anglab tushunmay undan o'z maqsadlarimiz yo'lida foydalanamiz,lekin tabiatning jimgina qarab turishini,beparvolikka yo'yamiz,uning kuchlarini o'zimizga bo'ysundirdik deb o'ylab undan bemalol foydalanamiz.

Tabiatga bo'lgan mehrni o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan boshlash kerak,chunki inson ham tabiatning bir bo'lagi hisoblansada aynan insonning o'zi tabiatga eng ko'p zarar yetkazadi.<sup>1</sup>

Taniqli nemis yozuvchisi I. V.Giyote ning ta`kidlashicha "*Tabiatda nutq a'zolari yoq,lekin u gapiradigan va his qiladigan tillar va qalblarni yaratgan*" deb ta'kidlab biz insonlarni tabiatni til-u zaboni,his qiluvchi qalbi bo'lishga chaqiradi.Biz shunchaki tabiatdan foydalanib buni tabiiy hol deb qabul qilib o'rganganmiz,lekin tabiiy boyliklar bitmas-tuganmas ekanligini eng avvalo kichik yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarimizga tushuntirishimiz kerak.Hatto quyosh ham bitmas tuganmas emas,hatto yer ham hamma joyda biz kutgan hosilni bermaydi<sup>3</sup>.Shuningdek geografiya darslarida o'quvchisiga atrof muhitga oqilona munosabatda bo'lishiga ,ularni tabiatni asrab avaylashga udash emas hayotiy qoidasi doimiy tamoyiliga aylantirishimiz lozim.<sup>1</sup>Quyda sizga taqdim etayotgan atrof muhitga oqilona munosabatda bo'lishning besh tamoili kichik yoshdagi o'quvchilarimizning tabiat tioremasiga aylanajak.

Ona tabiatga oqilona munosabatda bo'lishning besh tamoili.

- 1.Suvni isrof qilmaslik va iflos qilmaslik
- 2.Toza hududda yashil olam yaratish.
- 3.O'simlik va hayvonlarni himoya qilish
- 4.Chiqindisiz yashashga harakat qilish
- 5.Tabiiy mahsulotlardan iste'mol qilish



O'quvchilarga geografiya dasrlarida atrof muhidni asrashga qaratilgan bir-qancha loyihalarni amalga oshirish ,innovatsion g'oyalar o'quvchilarga tabiatga bo'lgan mehrini oshiribgina qolmay tabiat bergen ne'matlardan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Yuqoridagi tamoillarga amal qilish va ularni bajarishda o'quvchilarimizga avvalo o'rnak bo'lishi,gohida nazoratga olishi,ayrim hollarda bajarib ko'rsatilishi darkor.

Atrofimizdagи olam darslarida yil faslarining almashishiga doir ko'plab xalqimizning maqollaridan foydalansak ham o'quvchilarimizning tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi va tabiat hodisalarini o'rganishda yordam beradi.

**Maqollarda tabiat va mehnat shijoati aksi namoyon.**

**Yoz mevasi –qish xazinasi.**

**Yozgi harakat kuzgi barakat.**

**Yozning yozi'i-qishning ozig'i.**

**Yozning yomg‘iridan qo‘rq-qishning qirovidan.**

**Yer haydasang kuz hayda,  
Kuz haydamasang yuz hayda.**

**Kuzning bir kuni-qishning bir oyini boqar.**

**Kun g‘amini sahar ye,**

**Yil g‘amini bahor ye.**

**Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas,**

**Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas.<sup>2</sup>**

Maqollarda hayot haqiqati yotadi, ularni anglatish uchun o‘quvchiga tabiatga bo‘lgan mehrini oshirish va atrof olamni o‘rganishga qiziqtirishimiz darkor.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.Sh.A Sodiqova,M.A Rasulxo`jayeva “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi”-T “Fan va texnalogiya” nashryoti 2012
- 2.Xosiyatxon Suvonqulova “ O‘zbek xalq maqollari”-T “Adabiyot uchquni”2014
- 3.Orif Ayupov “Dunyo siyosat-jamiyat” Guliston 2016